

ORTIRILGAN IMMUN TANQISLIK SINDROMI

Abduvali Yo'ldashev Alisher o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi.

Irodaxon Xolmatova Nurmuhammad qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi.

Anatatsiya: *Ushbu maqolada hozirgi kunning dolzarb muammolari bo'lgan. OIV VA OITS haqida hamda ularning yuqish yo'lari, sabablari va simptomlari ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *OITS, OIV, simptom, gemofiliya, lentivirus, rektal, genital, baltimor.*

Odamning immunitet tanqisligi virusi 1983-yilda OITS o'rganilayotgan paytda aniqlagan. Bu kasallik birinchi marta giyohvandlik va gemofiliya kasalliklari paytida yuzaga kelgan buzilishlarni kuzatish natijasida aniqlangan. Odamning immunitet tanqisligini keltirib chiqaradigan virus Lentivirus jinsining retroviruslar (Retroviridae) oilasiga kiradi. Lentivirus lotincha "tush" degan ma'noni anglatadi. Chunki virus inson tanasiga kirgandan keyin sekin harakat qiladi. Shunga ko'ra, kasallikning dastabki belgilari uzoq vaqt davomida namoyon bo'ladi. Odamga bu virusni yuqtirish va OITSGa chalinishi uchun taxminan 9-11 yil kerak bo'ladi. Baltimor 6-guruhida joylashgan retroviruslar noyob va qiziqarli hayot sikliga ega.[1]

Baltimor 6- guruh virusi o'zining replikativ siklida teskari transkripsiya bosqichiga va oraliq mahsulot sifatida DNK ga ega bo'lgan retroviridal oilaga kiradi. Bu oila vakillari faqatgina umurtqalilarni ingitsirlash xususiyatiga ega. Bu sinfning asosiy vakili OIV ni , bir xil vakillari o'sma kasaligini keltirib chiqaradi.

OITS (ortirilgan immun tanqisligi sindromi) – sindromi OIV (orttirilgan immun tanqisligi virusi) tomonidan chaqiriladigan kasallik. Kasallik inson immun tizimini o'zgartiradi, infeksiya va boshqa kasalliklarga sezuvchanlikni oshiradi. Agar bu sindrom rivojlansa bu sezuvchanlik yanada oshadi. OIV virusi odamning barcha to'qimalarida uchraydi, zararlangan odamning organizm ichki suyuqliklari orqali yuqadi. Masalan sperma, qin ajralmasi, qon va ko'krak suti orqali tarqalishi aniqlangan.

OIV – bu virus.

OITS – bu organizmning immun tanqislik holati.

OIV qanday yuqishi mumkin?

Jinsiy aloqa – bu yo'l bilan zararlangan jinsiy suyuqliklar (rektal, genital va og'izning shilliq qavat) natijasida yuqadi. Bu holat jinsiy aloqa paytida himoya vositalaridan foydalanilmaganda, atipik jinsiy aloqa bo'lganda, yoki ishlatiladigan ashyolar orqali sodir bo'lishi mumkin.

Qon orqali – bu yo‘l orqali yuqish rivojlangan mamlakatlarda qon quyish jarayonida ko‘proq sodir bo‘ladi. Bu holatda tomir ichiga yuboriladigan narkotik shprislarini o‘zgartirmasdan yoki zararlangan shpirslar orqali yuborilganda zararlanish kuzatiladi.

OIV boshlang‘ich simptomlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: •

- Yuqori harorat; •
- Qaltirash; •
- Bo‘g‘imlarda og‘riq; •
- Mushaklarda og‘riq; •
- Tomoq og‘rig‘i; •
- Tunda ko‘p terlash; •
- Bezlarning kattalashuvi; •
- Tanada qizil rangli toshmalar; •
- Tez charchash; •
- Tezda vazn yo‘qotish.

Shuni yodda tutish kerakki yuqoridagi belgilar faqatgina OIV virusning o‘zi bilan emas, balki ikkilamchi viruslar bilan zararlangan keyin yuzaga keladi.

Simptomlari •

- Ko‘z oldi xiralashishi; •
- Doimiy ich ketishi; •
- Quruq yo‘tal haroratning hafta davomida 37 darajadan yuqori bo‘lishi; •
- Tungi vaqtda ko‘p terlash; •
- Doimiy charchoq; •
- Nafas qisishi; •
- Bezlar kattalashuvi; •
- Tezda vazn yo‘qotilishi; •
- Og‘iz bo‘shlig‘ida va tilda oq dog‘lar.[2]

OITS ning oldini olish choralari OIV ning oldini olish choralari har bir tibbiyot xodimi bilishi zarur: Himoya vositalarisiz jinsiy aloqa – bu yo‘l bilan inson OIV va boshqa jinsiy a‘zolarining infeksiyon kasalliklarini yuqtirib olishi mumkin. Prezervativlar har bir jinsiy aloqa uchun alohida va to‘g‘ri ishlatilishi zarur. Narkotik vositalarni qabul qilishda – tomir ichiga qabul qilinadigan narkotik vositalari rivojlangan mamlakatlarda OIV tarqalishida asosiy o‘rinda turadi. Bu yo‘l orqali yana gepatitning C turi ham tarqaladi. Agar ignalarni ishlatish zarurati tug‘ilsa, igna steril, avval ishlatilmagan, ochilmagan bo‘lishi kerak. Tibbiy xodimlar – OIV bilan zararlangan kasallar bilan ishlovchi tibbiyot xodimlari maxsus qo‘lqoplar, niqob, himoya ko‘zoynaklari, xalatlar bilan ishlash talab etiladi. Agarda teriga qon tegadigan bo‘lsa, darhol terini suv bilan yuvish zararlanishni oldini oladi.

Homiladorlikda -ba'zi antiretrovirus dorilari homilaga zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun keserva kesish yo'li bilan tug'gan ma'qulroq. OIV bilan zararlangan ayol ko'krak suti bilan virusni farzandiga yuqtirishi mumkin. Psixologik - dunyodagi ko'pchilik OIV bilan zararlangan insonlar o'zini zararlanganliklarini oshkor etmaydilar. Natijada OIV tashxisi kechikadi. Vaqtida qo'yilmagan tashxis og'ir oqibatlar bilan yakunlanadi.[3]

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning 197 mamlakatida 2000 yil oxirigacha 5,5 million odam OITS bilan xastalangan va ulardan 15,5 millioni vafot etgan. Hozirgi kunda esa bu xastalikka chalinganlar soni 90 million atrofida. O'zbekistonda ham OITS bilan kasallanganlarning soni ortib bormoqda. Shuning uchun xalqimizga OITS haqida ilmiy asoslangan, mukammal tushunchalarni yetkazishning ahamiyati nihoyatda katta.

OITS kasalligining belgilari: Kasallikning yashirin davri o'rtacha 3-4 haftadan 5-6 oy, hatto 2-5 yilgacha davom etib, so'ng OIV infeksiyasining klinik belgilari namoyon bo'ladi. Bunda kamquvvatlik, ishtaha pasayishi, kechalari terlash, uzoq vaqt sababsiz tana haroratining ko'tarilishi, limfa tugunlari (jag' osti, qo'ltiq osti) ning kattalashuvi kuzatiladi, terida toshmalar paydo bo'ladi. Shuningdek ich ketishi (diareya), sababsiz o'pka shamolashlari (atipik pnevmoniya) holatlari, odamning keskin ozib ketishi, xavfli o'smalarning rivojlanishi yuzaga keladi. Avj olish davrida bemor sariq kasal, sil, nafas yo'llari va oshqozon ichak tizimini zararlovchi turli kasalliklarga beriluvchan bo'lib qoladi. Tanada yuzaga kelgan boshqa kasalliklarning asorati tufayli inson hayotdan ko'z yumadi. Kasallik muqarar o'lim bilan tugaydi.[4]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umarov Faxriddin Baxriddin o'g'li; OITS YUQISH YO'LLARI, OITSNI ONADAN BOLAGA O'TISH YO'LI, OITS NI QON ORQALI YUQISHI, OITS DIAGNOSTKASI, OITS PROFLAKTIKASI, EURASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.3 www.in-academy.uz . : 2022-yil; [135-140]
2. Generalov I.I; Tibbiy virusologiya.
3. Ziyodullayeva Nargiza Akmalovna; ORTTIRILGAN IMMUNITET TANQISLIGI SINDROMI. JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH. : 2023; [330-334]
4. Xabibullayev Asilbek Asadulla o'g'li; DAVOSI TOPILMAYOTGAN KASALLIKLAR USTIDA ISHLASH- OITS.«Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiy. [7-10]